



## IBRATLI UMR YO'LLARI...

---

*Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi*

*TOSHKENT DAVLAT*

*TRANSPORT UNIVERSITETI*

*Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi*

[\*yoldoshevafarangiz311@gmail.com\*](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hayotning achchiq zarbalariga adabiyot bilan qalqon yasagan ikki buyuk davlatning atoqli shoiri Maqsud Shayxzoda haqida so'z yuritamiz. Uning zalvorli hayoti, o'z yurtidan olis Toshkent sari surgun qilingan mashaqqatli taqdir egasi maqolamizning bosh qahramonidir.

**Kalit so'zlar:** mashaqqat, mehr-muruvvat, surgunlik, vatan sog'inchi, ijodiy parvoz, ko'ngil hotirjamligi.

## GREAT WAYS OF LIFE...

*Yoldosheva Farangiz Sayfiddin qizi*

*TASHKENT STATE*

*TRANSPORT UNIVERSITY*

*Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student*

[\*yoldoshevafarangiz311@gmail.com\*](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)

**Abstract.** In this article, we will talk about Maqsud Sheikhzadeh, a famous poet of two great countries, who made a shield against the bitter blows of life with literature. The main character of our article is the owner of his difficult life, exiled far from his country to Tashkent.

**Key words:** hard work, kindness, exile, homesickness, creative flight, peace of mind.

## ВЕЛИКИЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ...

*Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.*

*ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ*

*ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ*

*Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени*



[yoldoshivafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshivafarangiz311@gmail.com)

**Абстрактный.** В этой статье мы поговорим о Максуде Шейхзаде, известном поэте двух великих стран, который литературой защитил себя от горьких ударов жизни. Главный герой нашей статьи – хозяин своей непростой жизни, сосланный далеко от своей страны в Ташкент.

**Ключевые слова:** трудолюбие, доброта, ссылка, тоска по дому, творческий полет, душевное спокойствие.

Inson yashar ekan uning hayoti turli past-balandliklardan iborat bo'ladi. Bu past-balandliklardan bu sinovlardan o'tish oson emas. Faqatgina inson qalbidagi ezgu maqsadlar, ezgu o'y-xayollar uni har qanaqa mashaqqatlarga dosh berishi uchun zamin bo'ladi. Ozarboyjon va O'zbekiston xalqining suyukli farzandi, ikki xalqning buyuk dilbandi Maqsud Shayxzodaning achchiq haqiqatlarga boy hayoti haqida so'z yuritimiz.

Maqsud Shayxzoda 1908-yilning 25 oktabrda Ozarboyjon Respublikasining Ganja viloyatida shifokor oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ma'sumbek o'z zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo'lib shifokorlik kasbidan tashqari, san'at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ularning oilasida shaharning eng ziyoli kishilari yig'ilib, munozara va mubohasa qilishardi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Shunday oilada tarbiya topayotgan bo'lajak shoir boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o'qidi. U 1925-yildan boshlab Ozarbayjon Maorif xalq komissarligi yo'llanmasi bilan Dog'istonning Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullandi. Shayxzoda Dog'istonda kechgan qisqa hayoti davomida ham muallim, ham shoir, ham jurnalist, ham tanqidchi sifatida namoyon bo'ldi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga surgun qilinib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirdi.<sup>1</sup> Ozarboyjon xalqini mustaqil davlatga aylantirish yo'lidagi ezgu orzu-umidlari uchun mustabid hukumat tomonidan qoralanib, 25 yilga ozodlikdan mahrum etilgan shoirning dard-u xasratlari uni

<sup>1</sup> <https://oz.sputniknews.uz/>



adabiyot atalmish ko'ngil bog'iga sayr etishga sababchi bo'ldi. O'z yurtidan olisda, oila a'zolaridan yiroqda bo'lsa-da hamisha ularning yodi bilan yashagan shoirning ichki kechinmalari juda dardlidir.

Shoirning ijod yo'liga to'xtaladigan bo'lsak, uning «O'n she'r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovoqli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Urush yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko'ngil deydiki...» kabi she'riy to'plamlari, «Jaloliddin Manguberdi» (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini yaratdi.

Urushdan keyini tinch qurilish yillarida qatag'onlik jabrini tortgan bo'lsa ham, o'z el-yurtiga fidoiy shoir Vatanimiz bo'ylab keng quloq yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida «O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni» kabi she'riy to'plamlarini yaratdi.

1958 yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi «Toshkentnoma» lirik dostoni yaratildi. Iste'dodli dramaturg 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida buyuk o'zbek munajjimi va ma'rifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning «Hamlet», «Romeo va Juletta» tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga o'giradi.<sup>2</sup>

“Darhaqiqat Yevropada, jumladan Rossiyada odamlar hali oyoqyalang yurgan kezlarda Sharqning jahon madaniyatiga ulkan hiss bo'lib qo'shilgan obidalarini yaratib qo'yilgan, Rossiyada ayrim-ayrim knyazliklar shaklida yashayotganda Sharqda qudratli davlatlar allaqachon barpo etilgan edi. Shayxzoda ana shu Sharqning shoir va olimlari, davlatchilik tarixiga asos slogan podsholari bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashgan sarkardalari bilan haqli ravishda iftixor qilgan. U ana shu iftixor tuyg'usini ikkinchi jahon urushi yillarida sovet mamlakati taqdiri xavf ostida qolgan bir davrda xalqni kurashga, g'alabaga chorlovchi “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasida ifodalagan edi.

<sup>2</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida>



Ammo bu asar xalqni vatan mustaqilligi yo'lida qahramonona mehnat va kurashga rag'batlantirish ishiga qanchalik xizmat qilmasin, ko'p o'tmay sahnadan olib tashlandi. Falakning gardishi bilan O'zbekistonga kelib qolgan ayrim kimsalar Shayxzodani tarixiy o'tmishga sinfiy mezonlar asosida yondashmaslikda ayblab chiqdi. Stalin mukofotiga tavsiya etilgan asar muallifi feodal o'tmishni ideallashtirishda, Kavkaz xalqlariga "jabr-zulm" o'tkazgan" Jaloliddin obrazini buzib talqin qilishda ayblandi. 1952 yili Shayxzodaning qamoqqa olinishida xuddi shu masala raqiblar qo'lidagi asosiy dastak bo'ldi" deb yozadi Naim Karimov.

Ha, inson qancha azob –uqubatlarga duchor bo'lmasin aslida uning qalbida avval boshdan bo'lgan yaxshilik, ezgulik, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari baribir qalbida hamisha bahordek unaveradi. Atoqli o'zbek va ozarboyjon farzandi Maqsud Shayxzoda bugun qalbimizning ng to'ridan joy olgan haqiqiy yurt farzandidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar(REFERENCES)**

1. Adabiyotga baxshida umr. N.Karimov
2. <https://oz.sputniknews.uz/>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida>
4. Mirtemir xotiralari. Uznews
5. Xurshid Davron kutubxonasi.